

Jurnal 2024-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining №072250 raqamli guvohnomasi asosida dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: OBIDJON XAMIDOV, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari: DILRABO QUVVATOVA, filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Mas'ul kotib: NAFOSAT O'ROQOVA, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

DARMONOY O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori,
professor (Tojikiston)

SALIMA MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkiya)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor (Rossiya)

FUNDA TOPRAK,
Pr. Dok. (Turkiya)

NIZOMIDDIN MURODIY,
filologiya fanlari doktori,
professor (Tojikiston)

OLAF GUENTHER,
Filologiya fanlari doktori,
Leypsig universiteti
(Germaniya)

ALBINA HAAS,
MA., Myunster universiteti
Germanistika instituti dotsenti
(Germaniya)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

ZEBO QOBILOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc) (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

MAQSUD ASADOV,

filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

BAXTIYOR

FAYZULLOYEV,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (Tojikiston)

HILOLA SAFAROVA,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,

filologiya fanlari doktori
(DSc), professor
(O'zbekiston)

DILOROM

YO'LDOSHEVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc)i, professor
(O'zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAFISA

G'AYBULLAYEVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

MUBORAK XAMIDOVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

JEREN MIZRABOVA,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

YARASH RO'ZIYEV,

filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent (O'zbekiston)

OTABEK NOSIROV,

filologiya fanlari
bo'yicha

falsafa doktori (PhD)

(O'zbekiston)

ZARNIGOR SOBIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

SADOQAT

MAXMUDOVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

NODIR RO'ZIYEV,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

NODIRA XOLIQOVA,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

RO'ZIGUL QODIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

TO'XTAMUROD RAJABOV

filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO'LQIN RASULOV,

fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari:

ERGASH QILICHEV,

filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,

filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)

NAFAS SHODMONOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HAYITOV,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHODMON SULAYMONOV,

filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,

texnika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

BIBISH JO'RAYEVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

LAYLO SHARIPOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAZORA BEKOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

ATOULLO AXMEDOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

GULI TOIROVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

LOLA NE'MATOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

BASHORAT JAMILOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MUHARRIRLAR:

SHOHSANAM DAVRONOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

RA'NO RAJABOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

IXTIYOR KAMOLOV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MEHRIGIYO SHIRINOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TEXNIK MUHARRIRLAR:

NASIMA Qodirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

NIGORA Sayfullayeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSAHHIHLAR:

DILDORA Nazarova

SARVINOZ Raximova

Ustod Ayniy tarixnavislikda iste'dodli adib-u, yozuvchilikda tarixning ulug' bilimdoni edi. U xalqimiz o'tmishini xuddi o'zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar ustakorona o'rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi va chaqirig'i butun borlig'icha ufurib va jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Oxunjon Safarov,
filologiya fanlari doktori, professor

Hech ikkilanmay aytish joizki, Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining eng nodir, eng e'tiborli va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma'rifat, tarix, hayot va haqiqatdir. Ayniy asarlarini bilish ko'hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

*Davronova SHohsanam G'aybulloyevna,
BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
(O'zbekiston)
E-mail: davronova-sh@mail.ru*

TARIXIY VOQELIK TASVIRI VA YOZUVCHINING BADIY MAHORATI (ISAJON SULTON HIKOYALARI ASOSIDA)

Annonatsiya. Hozirgi o'zbek adabiyotida hikoya janri rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan ijodkorlardan biri Isajon Sultondir. Uning hikoyalari mavzular xilma-xilligi, g'oyaviy ko'lami hamda badiiy jihatdan betakrorligi bilan ajralib turadi. Adib tarixiy mavzulardagi hikoyalarda ham o'ziga xos mahoratini namoyon etdi. Ushbu maqolada Isajon Sulton hikoyalarda tarixiy mavzu talqini hamda ijodkorning badiiy mahorati masalasi yoritilgan. Tahlil uchun adibning "Ismsiz qahramon haqida hikoya" hamda "Xun" hikoyalari tanlab olingan. Ijodkorning xarakter yaratish va qahramon ruhiyatini badiiy ifodalash borasida erishgan yuturlari tahlillar asosida ochib berilgan. Hikoyalarda urush bilan bog'liq voqelik tasviri va inson ma'naviyati muammolarining o'ziga xos uslubda ifoda etilishiga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar. Isajon Sulton nasri, hikoya, "Ismsiz qahramon haqida hikoya", "Xun", tarixiy mavzu, urush mavzusi, badiiy g'oya, badiiy tasvir, badiiy mahorat, obraz, xarakter.

Аннотация. Одним из творцов, внесших значительный вклад в развитие жанра короткого рассказа в современной узбекской литературе, является Исажон Султан. Его рассказы отличаются многообразием тем, идейным размахом и художественной самобытностью. Свое уникальное мастерство писатель продемонстрировал также в рассказах на историческую тематику. В данной статье освещаются интерпретация исторических тем в рассказах Исаждона Султана и художественное мастерство создателя. Для анализа были выбраны рассказы писателя "Ismsiz qahramon haqida hikoya" ("История неизвестного героя") и "Хун" ("Мечь"). На основе анализа раскрываются достижения создателя в создании характеров и художественном выражении психики героя. В рассказах акцент сделан на уникальной манере изображения действительности, связанной с войной, и выражении духовности человека.

Ключевые слова: Проза Исаждона Султана, рассказ, "Ismsiz qahramon haqida hikoya" ("История неизвестного героя"), "Хун" ("Мечь"), историческая тема, военная тема, художественная идея, художественный образ, художественное мастерство, образ, персонаж.

Abstract. One of the creators who has made a significant contribution to the development of the short story genre in contemporary Uzbek literature is Isajon Sultan. His stories are distinguished by their diversity of themes, ideological scope, and artistic uniqueness. The writer also demonstrated his unique skill in his stories on historical themes. This article highlights the interpretation of historical themes in Isajon Sultan's stories and the artistic skill of the creator. The writer's stories "Ismsiz qahramon haqida hikoya" ("The Story of an Unknown Hero") and "Khun" ("Vendetta") were selected for analysis. The creator's achievements in creating characters and artistically expressing the hero's psyche are revealed on the basis of the analysis. The stories focus on the unique style of depicting the reality associated with the war and the expression of human spirituality.

Keywords: Isajon Sultan's prose, story, "Ismsiz qahramon haqida hikoya" ("The Story of an Unknown Hero"), "Khun" ("Vendetta") historical theme, war theme, artistic idea, artistic image, artistic skills, image, character.

Kirish. Taniqli o'zbek yozuvchisi Isajon Sulton tarixiy mavzuda "Qoraqush yulduzining siri", "Ismsiz qahramon haqida hikoya", "Xun", "Tilsim lashkari" kabi bir qancha hikoyalarni yaratdi. Ijodkorning tarixiy voqelik qalamga olingan hikoyalarda yurt ravnaqi, ozodligi, farovonligi uchun fidoyilik ko'rsatgan insonlarning badiiy olami yaratilgan. Jasorat, oriyat, mardlik kabi insoniy fazilatlar ulug'langan.

Adabiyotshunos Y.Solijonov “Niyati qutlug‘ adib” nomli maqolasida adib asarlarining tarbiyaviy ahamiyati xususida so‘z yuritar ekan, shunday yozadi: “Chunki uning har bir hikoyasi, qissa va romanlari o‘quvchi ommasini har qanday sharoitda ham inson ma‘naviy jihatdan yetuk, sabr-toqatli, mehr-muhabbatli, vafo-sadoqatli, or-nomusli bo‘lishi, bu fazilatlari bilan jamiyatni olg‘a harakatlantiruvchi, uni pokiza asrovchi qudratli kuch ekanligini isbotlashga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga egadir” [4, 55]. Bunday jihatlar Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi hikoyalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Adibning “Ismsiz qahramon haqida hikoya” hamda “Xun” asarlari mavzusi jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Ikkala hikoyada ham uzoq o‘tmish voqealari, urush va inson qismatidagi murakkab jihatlar qalamga olingan.

Asosiy qism. “Ismsiz qahramon haqida hikoya” asarida IV asrning boshlarida xunlar va xanzular o‘rtasidagi to‘qnashuv haqida hikoya qilinadi. Asar “Bu hikoya tarixda ajdodlarimiz sanalmish ko‘hna xun xalqining ismsiz bir qahramoni haqida” [7, 113] degan jumla bilan boshlanadi. Hikoyada tasvirlanishicha, jang qilish uchun noqulaylik tug‘dirayotgan ob-havo hamda bahorgacha ozuqaning kamayib qolgani tufayli muammolar kelib chiqayotgan bir mahalda xanzular tarafidan kiritilgan taklif amalga oshiriladi. Ya‘ni ikkala tomondan ham bittadan pahlavon chiqib jang qilishi va g‘alaba qilgan tomon urushda yenggan hisoblanishi kerak edi. Yozuvchi dastavval alohida bir timsol emas, balki butun qo‘shinning jangovar holatini tasvirlab berishga kirishadi. Xanzular tasvirlanar ekan, “Ustiga ustak, xanzular son jihatdan xunlardan anchagina ko‘p edi, askariy tayyorgarlikda ham xunlardan qolishmasdi” [7, 113] yoki “Namgarchilik tufayli xanzu qo‘shini tomonda harakat sezilmayotgan edi. Bir necha xun askari ot choptirib qaytib kelishdi, lekin xanzular bunga javoban hech nima qilishmadi” [7, 114] yana “Yaylovda bir necha xanzu askari ko‘rindi. Ular yaltir-yultir matolardan kiyim kiygan, o‘zlariga shu qadar oro bergan edilarki, xun askari o‘rtasida yana kulgi ko‘tarildi” [7, 114] kabi ta‘riflar beriladi. Aslida urush hanzularning “xun yerlariga o‘qtin-o‘qtin hujum qilganlari va cho‘ponlarning ba‘zilarini o‘ldirib, mol-holini talon qilganlari sabab” [7, 113] bo‘lgan edi. Harbiy tayyorgarlik va qo‘shinning soni ko‘pligiga qaramay jangovar ruh va jasorat jihatidan xanzular xunlardan ustun emas edi. Xunlar tasvirida jangovarlik, g‘urur, isyonkorlikning kuchliligi ko‘rsatib beriladi: “Faqat xunlarda jang hissi kuchli edi, bir xun askari hayqirganida o‘nlab xanzuning yuragida qo‘rquv uyg‘otar, sarosimaga solardi” [7, 113] yoki “Buni ko‘rgan xun askari kular va “Yomg‘irni o‘q deb o‘yladingizmi, hali haqiqiy yomg‘irni endi ko‘rasiz” deb qichqirar edi. Xanzular bunga javoban ham jim edilar” [7, 114]. Bunda ko‘rinib turibdiki, yozuvchi bir askarning emas, balki butun qo‘shinning qiyofasi, holati, ruhiyati haqida tasavvur uyg‘otishga harakat qilmoqda. Ya‘ni aytish mumkinki, bir vaqtning o‘zida jamoaning, ommaning holatini gavdalantirishga harakat ham yozuvchidan badiiy ifodalash mahoratini talab etadi. Bu orqali yozuvchi vatan himoyasiga otlangan qo‘shinning mukammal va tartibga solingan, ahillik va yakdillikka asoslangan yaxlit tizim ekanligini nazarda tutgan.

Xanzularning yakkama yakkaga jang taklifiga ham xunlar bari otlanmoqchi bo‘ladi. “Hammaning xanzu pahlavonini yenggisi kelar edi” [7, 115]. Bunda ham yozuvchi xunlarning botirligi, qaytmasligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Alohida jangga chiqishga shaylangan askarlar ta‘rifida yozuvchi qarama-qarshi qo‘yish va bu orqali voqealarning ta‘sir kuchini oshirishga qaratilgan usulni qo‘llaydi. Hanzular tarafidan “bo‘yi ikki metr keladigan semiz bir xanzu” [7,115] chiqqan bo‘lsa, xunlar tarafidan “qotma jussali, askar orasida Mitti deb laqab olgan yigit” [7, 115] chiqdi, qolaversa, uning “oti ham baquvvat emas edi, loyda toyg‘onib-toyg‘onib yo‘rtib borar edi” [7, 115]. Bu qiyos orqali ham kitobxonda ikki tarafning kuchini chamalab ko‘rish imkoniyati yaratiladi. Ammo jang jarayonlarida Mittining shiddati, yengilmasligi g‘alabani tayin etadi. U yaralangan bo‘lishiga qaramasdan jang qilishdan to‘xtamaydi, olishuvda davom etadi, epchilligini ko‘rsatadi. Nafaqat raqibi – semiz xanzuni yiqitdi, balki unda butun qo‘shinga hamla qilishga yetgulik kuch paydo bo‘lgan edi, xanzular qo‘shini tomonga yelib ketgan Mitti “quyundek bo‘lib xanzu askarlarining bir nechasini ag‘dardi, qolganlari esa pala-partish qocha boshladilar” [7, 116]. Bu tasvirlarda biroz mubolag‘a, bo‘rttirish holatlari sezilishi mumkin, ammo badiiy tasvir an‘analarida bunday usullar o‘zining natijasini ko‘rsatgan, ya‘ni ma‘noni kuchaytirish, kitobxonni ishontirish, o‘quvchining hissiyotiga ta‘sir ko‘rsatishda ahamiyatga ega bo‘lgan. Hikoyada yozuvchi xalq og‘zaki ijodi va o‘tmish yozma adabiyotga xos tajribalarga ma‘lum ma‘noda tayangan. Keyingi o‘rinda yana xun askarlarining tutumi yozuvchining jamoa qiyofasini tasvirlash borasidagi san‘atkorligini ko‘rsatadi: “Xun askari guvullab o‘rnidan qo‘zg‘aldi, xuddi Amu kabi shiddat bilan selday bo‘lib xanzu ustiga oqdi” [7, 116]. Asarda xunlarning g‘alabasi ana shunday ruhiy ustunlik bilan asoslanadi.

Muhokama va natijalar. Hikoya matnidani yozuvchining badiiy niyati ayonlashib boradi, ya'ni, yurt himoyasi uchun vatanparvar, mard, qo'rqmas posbonlar kerak. Ularning dovyurakligi, jasorati, shijoati har qanday kuchli yovni ham mahv etadi. Yozuvchining talqiniga ko'ra vatan himoyasi uchun fidoyilik ham katta kuchdir. Asar qahramonlari xun askarlarining yana bir ustunligi ana shu jihatlarida ko'rinadi. Ular yovga qarshi kurashda o'zlarini ayamaydilar, ochlik va yupunlik ham, ob-havoning noqulayligi ham ularga to'siq bo'la olmaydi.

Asarning so'nggi qismida qo'shinga ruhiy kuch va dalda bergan timsol, fidoyilikning yorqin namunasi bo'lgan Mitti haqida so'z boradi: “– Uning ismi ham yo‘q, hoqonim, – dedi Lashkarboshi. – Askarlar uni Mitti deb chaqirishardi. Uning uy-joyi ham yo‘q. Xanzu bosqin qildi degan gapni eshitib, mol-holini sotib, yarog‘ va ot olib qo‘shinga qo‘shilgan ekan. Bu dunyoda uning hech kimi yo‘q, hoqonim. Na uy-joyi, na mol-joni, na oilasi, na yaqinlari...” [7, 118]. Bundan ko'rinib turibdiki, qahramon o'z shon-shavkati, mol-dunyosi yoki o'ziga yaqin kishilar uchun emas, balki el-yurtining manfaati, ozodligi uchun jonini qurbon qiladi. Bu qurbonlik esa qo'shinga katta ruhiy quvvat va g'alaba, yurtga erkinlik keltiradi.

Umuman olganda, ushbu asarda yozuvchining asosiy maqsadi insoniyatga qirg'in soluvchi dahshatli urush manzaralarini tasvir etish emas, balki urush mavzusini yoritish orqali insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlar – fidoyilik, mardlik, jasorat, qahramonlikni ulug'lashdir.

“Xun” hikoyasida ham xunlar va xanzular o'rtasidagi nizolar to'g'risida so'z boradi. Asarda Tangritog' etaklaridagi ko'kalamzor yaylovda faqirona hayot kechiruvchi Erxon chol va uning elliklarni qoralab qolgan ayoli Oyto'ldi tasvirlanadi. Erxon chol yoshligida qabilasining tinchligi, ozodligini saqlash uchun harakat qilgan, xanzularga qarshi kurashgan haqiqiy jangchi bo'lganligi uchun Yadg'uxonning e'tiborida edi. Chunki u yoshlik paytlarida “baquvvat, bo'yni buqanikidek yo'g'on, zabardast bir jangchi edi-da” [6, 22]. Ammo “so'yoq tishli qari xanzu”ning [6, 25] nayzasiga munosib javob qaytarishga ojiz bo'lgan kekxa Erxonning o'limi Yadg'uxon qatorida Oyto'ldining ham qalbida qasos o'tini alangalatgan edi.

“Tunda, yaylovdan uncha uzoq bo'lmagan sayhonlikda bosqinchilar va Yag'du yigitlari o'rtasida” [6, 25] bo'lib o'tgan misli ko'rilmagan jangdan keyingi voqealar Oyto'ldining hayotiga keskin burilish yasagani qatorida uni butun umr besaranjomlik, iztiroblar iskanjasida qoldirdi. Bu uning halok bo'lgan xanzuning bolasini topib olgani bilan bog'liq edi. Bola katta bo'lgani sayin Oyto'ldining tashvishi ortib borardi, “bolani qanday o'ldirsam ekan, deb maysalar ustiga o'tirib olib bosh qotirar edi” [6, 31]. O'zini mard Erxon avlodidan degan tasavvur bilan ulg'aygan o'g'lon esa Oyto'ldidan eshitgan haqiqatini qabul qila olmadi va o'zini mahv etdi. “Negaki, o'g'lonning tomirlarida xanzu qoni oqayotgan esa-da, nomusli xunlarning tarbiyasini olgan edi” [6, 33].

Asarda turkiylar va xitoyliklarning qadim ajdodlari hayoti, ixtiloflari tasvirlangan. Biroq bizningcha, hikoyada tarixiy faktlarni yoritish emas, balki ajdodlar jasorati, matonati, fe'l-atvori, ma'naviyati masalalarini talqin etish maqsad qilingan.

Yozuvchi asar qahramonlarining tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari, odatlari bilan xarakteridagi o'ziga xoslikni mutanosib tarzda aks ettirishga alohida ahamiyat qaratadi. Eng avvalo, adib talqinida bu ikki qariya – er-xotin hayotining bir bo'lagi bo'lmish tabiat bilan mustahkam bog'lanib qolgan. Quyosh, o'rmon, vodiy – bular Oyto'ldi va O'rxonni o'z quchog'ida asrayotgan tushunchalar sifatida ular kechmishining muhim bir qismiga aylanib ketgan. “Ular bir vaqtlar tiklab olgan ko'rimsizgina go'shadan ancha narida xushxo'r mevalar-u turfa hayvonotga mo'l o'rmon boshlanardi. U ikki qariyani beminnat boqardi. Ko'k Tangrining farzandi – Quyosh o'rmon tepasida ko'tarilgan pallada Erxon chol qora po'latdan quyilgan keskir boltasini beliga qistirib, qo'yan tuzoqlarini ko'zdan kechirish uchun jo'nar, oradan xiyla vaqt o'tgach, yelkasida bir bog' quruq qarag'ay o'tinni-yu tipirchilayotgan quyonnimi, qirg'ovulni ko'tarib, mamnun qiyofada qaytib kelardi” [6, 20]. Ayolining vazifasi esa eri olib kelgan o'ljalardan taom tayyorlash bo'lib, u ham o'z ishiga astoydil kirishadi. “Ularni pishirish Oyto'ldining zimmasida edi. O'choqqa olov yoqib, eri so'yib-tozalab bergan etni olovga tovlagan paytda Erxon o't-o'lan ustiga yonboshlagancha ayolining harakatlarini kuzatar, shamollarda qotgan chandiqli, qoramag'iz yuzida Oyto'ldiga juda yoqadigan dag'al bir tabassum jilva qilib turardi” [6, 20]. Shu tariqa yozuvchi bu ikki qariyaning o'ziga xos hayot tarzini tasvirlashga kirishadi. Bunda nafaqat Erxon va Oyto'ldi hayoti, balki ularning qondoshlari hayotiga oid ham hayotiy, xarakterli chizgilar berib boriladi. Masalan: “Anavi choqqina yalanglikda, bir qaqtlar muzaffar jangchilarning o'g'illari tig' urish va nayza otish san'atini,

otda jang qilishni o'rganishardi" [6, 21]. Ammo bunda, bizningcha, yozuvchining badiiy maqsadi qahramonlarining turmushini shunchaki tasvirlashgina emas, bu orqali qadim ajdodlar hayot tarziga oid chizgilar berish, kitobxonlarning tarix haqidagi tasavvurlarini kengaytirishdir.

Asar qahramonlariga xos xarakterli jihatlar sifatida tabiatga oshnolik, butun hayotini ona tabiatning ne'matlaridan bahramandlikda, qanoat va rozilik hissi bilan kechirish ko'zga tashlanadi. Ona zaminday vazminlik bu ikki obraz xarakterining muhim qirrasini namoyon etadi. Boshqa tomondan esa ularning yoshi o'tib qolgan bo'lsa-da hech kimdan madad kutmasdan o'z kuchlariga tayanib, boriga qanoat qilib yashayotganliklari ham diqqatni tortadi. Ushbu tasvirlar xarakterlarni badiiy dalillashga va asarning keyingi voqealariga ishora berishga xizmat qiladi. Bu orqali qariyalarning naqadar oriyatli, bukilmaz irodali, matonatli, sabr-qanoatli insonlar ekanligi anglashiladi. Yozuvchi yana boshqa bir jihatni ham yodidan soqit qilmaydi. Albatta, yurtdoshlari Erxon chol va Oyto'ldini yolg'iz qoldirishni o'zlariga ep ko'rishmaydi. Qondoshlari, ayniqsa Yag'duxon ularni ko'p qistadi, ammo ular o'z ko'nikkan joylarini tark etishni istashmadi va Yag'duxon vaqti-vaqti bilan ulardan xabar olib, hol so'rab turdi. Ikkala qahramon – Erxon ham, Oyto'ldi ham o'z qarashlari, e'tiqodi, tanlagan yo'lidan chekinmaydigan insonlar obrazi sifatida ko'zga tashlanadi. Qo'li kuchdan qolgan "qaddi kamalakday egilgan, yuzi Tangritog' irmoqlariday egri-bugri ajinlarga to'la, qo'li tinmay qaltiraydi. Faqat ko'zlarigina o'sha-o'sha, o'tkirligicha qolgan, qattiq" [6, 22] Erxonning butun qudrati uning g'ururi, or-nomusi, o'z yo'lidan qaytmasligida edi. Bunday xususiyatlar esa uning ayolida ham namoyon bo'ladi. Qolaversa, ular uchun muqaddas qadriyat bo'lgan tushunchalar mavjud. Bu ularning yoshliklari, eng go'zal damlari o'tgan tabarruk go'sha bilan bog'liqdir. Shuningdek, yozuvchi hamjihatlik, saxovat, birdamlik fazilatlarini qadim ajdodlar fel-atvorida ham namoyon bo'lganligini ko'rsatishga intiladi. Ushbu tasvirlarning bari hikoya davomida yuz beradigan kelgusidagi voqealarga zamin hozirlaydi, o'quvchini shunga tayyorlab boradi.

Urushlar, ziddiyat va kelishmovchiliklar insoniyat tarixida, kechmishida azal-azaldan bo'lgan. Bu urushlar yakka shaxslar, qabilalar, davlatlar o'rtasidagi tortishuvlarning oqibatida yuzaga kelgan. Tortishuvlar esa yer, mol-mulk, obro', qasos va shu kabi ko'plab omillar sababli boshlanadi. Bunday jarayonlarda kishilarning matonati, sabr-toqati, insoniyligi sinaladigan murakkab vaziyatlar yuzaga keladi. Hikoyada ana shunday ixtilofning bir qirrasini aks ettirilgan. Ya'ni inson mehr va o'ch oralig'ida iztirob chekadi. Yovning zurriyodi bo'lsa-da, Oyto'ldi uni bolaligidan o'stirdi. Unda onalik hissi, tabiiyki, qo'zg'aldi. Ayni paytda qasosni Erxon xotirasi oldidagi burchi, mas'uliyati deb bildi. Yozuvchi voqealar silsilasida ayolning ruhiy holatlarini ham birma-bir yoritib boradi. Oyto'ldining o'qi xato ketib, yigitning tig' teggan bilagidan qon oqdi. Yigitda kuchli hayajon, hayrat, Oyto'ldida esa avval g'azab va nadomat, keyin xotirjamlik va o'kinch holatlarining kechganini kuzatish mumkin. Masalan, "Oyto'ldi unga javob qilmadi. U boshini quyi eggancha yig'lashdan to'xtamas, shunday esa-da dilining bir chetida o'g'lonning tirik qolganidan xursand ham edi. Axir o'ch olindi, dushman qoni to'kildi, bas, Erxon uchun shuning o'zi yetarli. U ulug' jangchi edi, kechirimli edi, bu ishi uchun kampiridan hech qachon dili ranjimaydi..." [6, 33]. Bunda ayolning onalik mehri qalbida uzoq yillardan buyon saqlab yurgan xun olish maqsadidan ustun kelganligini ko'ramiz va aytish mumkinki, bu holat hayotiy haqiqatning badiiy isbotidir. Chunki aslida ham ayollar tabiatida muhabbat, mehr, shafqat, onalik hissi boshqa har qanday mayl, ahd, alamzadalik, intiqom yoki ijtimoiy vazifalardan ustun kelishi mumkin. Qolaversa, bunda jangchining ayoli fe'l-atvoriga xos bo'lgan oriyatlilik, sadoqat, birso'zlilik kabi xususiyatlar ham namoyon bo'ladi.

Adib jangchi tabiatiga xos bo'lgan o'z maslagi yo'lida qat'iyatlilik, qasoskorlik xususiyatlarini qari ayol Oyto'ldi va hukmdor Yag'du ruhiyati tasvirini parallel qo'ygan holda ham ochib beradi. "U kampir bilan suhbatlashar ekan, adovat to'la nigohini xanzu o'g'lidani uzmasdi. Oyto'ldi uning niyatini juda yaxshi sezardi, albatta. Sezardi-yu o'g'lonni Yag'du yoyidan qutqarish yo'llarini o'zicha chamalardi. Xullas, har ikkovi ham xun olmoq istagida yonishar, ammo bu istaklarini bir-birlaridan yashirardilar" [6, 31]. Ko'rinib turibdiki, kampir bolaga naqadar mehr qo'ygan bo'lmasin, qasos olish istagidan voz kechmagan, bu ishini amalga oshirish uchun uning ulg'ayishini kutmoqda edi. Yag'du esa buni tezroq ado etishni xohlaydi. Ikkalasining ham maqsadi qasos olish bo'lsa-da, ular buni bir-birlaridan yashiradilar. Qolaversa, ularning oldida kuchli to'siqlar bor. Biri kampiridagi onalik hissi bo'lsa, ikkinchisi "halok bo'lgan shavkatli jangchi xotining so'ziga qarshi" [6, 29] bora olmaslikdir. Yozuvchi qahramonlar ruhiyati, kechinmalarini yonma-yon qo'yib tasvirlash orqali ularning ma'naviy olami va xarakterini yanada ochiqroq ko'rsatishga erishgan.

Yozuvchi qahramonlarini o'ziga xos tasavvur va e'tiqod egalari sifatida aks ettirish uchun xilma-xil usullarni qo'llaydi. Ularning dunyoqarashini yanada yorqin ochishga intilish orqali ham qahramonlar xarakterini badiiy dalillab boradi. "Tangritog' ustidan tuyqusdan momaqaldiraq gumburladi, kampir o'sha yoqqa qarab cho'qqilar ustida qora bulutdan asar ham yo'qligini, kechki shafaq yallig'i enlagan osmonning tip-tiniqligini ko'rdi. Ha, fursat yetgan edi. Ko'k Tangri kampirning niyatlarini bilgani bois ham intiqomga rozilik bergan edi" [6, 31]. Ko'rinib turibdiki, yozuvchining talqinida keksa ayol tabiatdan najot izlaydi, o'ziga xos tasavvuriga ko'ra, tabiat unga intiqom fursatini o'zi tanlab beradi.

Ijodkor qahramonlarning fikrlash tarzi, nutqini ham jangchilar tabiatiga muvofiq tarzda ifodalaganligini kuzatish mumkin. Masalan: "Erxonning har bir tomchi qoni uchun o'nlab xanzudan o'ch olaman! – davom etdi Yadg'uxon. – Xoh go'dagi bo'lsin, xoh choli – ayamayman! Buni men – Chingizning o'g'li Yag'du aytayotirman! Agar shunday qilmasam, Ko'k Tangri meni oq shoqollarga duch qilsin, ilonlar chaqib o'ldirsin, ko'zimni quzg'un cho'qisin! Ularning qonini Tangritog' suvlari kabi oqizmasam, nomim abadiy o'chsin!" [6, 28]. Mard jangchining bir tomchi qoni uchun o'nlab dushmandan o'ch haqida ont ichish ham jangchilar vorislari uchun ulug'vor maqsad, burchdir. Qolaversa, yozuvchining badiiy mahorati o'laroq uning onti ham xakteri va yashash tarzi bilan bog'lanadi. Shoqollar, ilonlar, quzg'unlar, tog' suvi kabilar tog' etaklari, yaylovlarda istiqomat qiladigan kishilar hayotida ko'p uchraydigan tushunchalardir. Yoki yozuvchi Yag'duxonning g'azabini "Qonini daryo kabi oqizmasam" tarzida ifoda etishi ham mumkin edi, biroq bunda "Tangritog' suvlari" birikmasining qo'llanilishi voqealar, manzaralar tasviriga mutanosiblik kasb etadi.

Yozuvchi qahramonlar tabiatidagi ijobiy yoki salbiy jihatlarni ochib berishda ham ularning e'tiqodiy qarashlarini muhim mezon sifatida ko'rsatadi. Masalan, qari bosqinchi xanzu sherigiga "Xotinni o'ldirish xanzuning ishi emas" [6, 25] desa, yovning bolasini topib olgan Oyto'ldining xayolidan "Yosh boladan xun olib bo'lmaydi, – deb o'yladi ayol, yo'lida davom etarkan. – Agar voyaga yetgan bo'lsa, boshqa gap edi. Go'dakni o'ldirmoq bizning qavmga yarashmaydi. Bundan hatto Ko'k Tangri ham g'azablanadi" [6, 27] degan o'y o'tadi.

Yozuvchining o'tmish manzarasini tasvirlashdagi mahorati asarda badiiy detallar, portret va peyzaj, tasviriy vositalarining qo'llanilishida ham namoyon bo'ladi. Qahramonlar hayot tarzi bilan bevosita bog'liqlikda yozuvchi o'sha davr kishilari ishlatgan narsa-buyumlarga ham murojaat etadiki, bular voqelikning badiiy tasvirida haqqoniylikni ta'minlashga xizmat qiladi. "Oydinbuloq oydinligi" nomli maqolasida keltirilgan ushbu fikrlar orqali hikoya adabiyotshunos Ulug'bek Hamdamning ham diqqatini tortganligini kuzatish mumkin: "E'tibor bersangiz, Tangritog' irmoqlari ham Erxonning ko'hna yoyi ham qahramonlarga tanish predmetlar, kipriklarga xanjar nisbat berilishida o'sha davr ruhidan kelib chiqib, o'quvchini o'tmish davrning ruhiga takror yo'naltiradi" [4, 150]. Masalan, yo'lbarsteri po'stak, keskir tishli cho'qmor, loy va kigizdan choqqina bir qo'nalg'a, ayiq yog'i, bo'ri kallalik tug', so'qishga chorlovchi burg'u sadolari, o'lim keltiruvchi gurzi, qora po'latdan quyilgan keskir bolta, bir yig'ochcha masofa va hokazolar tarixiy davr voqeligining jonli manzarasini gavdalandirishga xizmat qilgan. Qolaversa, asarning umumiy mazmunida yetakchilik qilgan jangchilar hayoti bilan bog'liq hodisalarni yanada yaqqol tasavvur etish uchun imkon yaratgan. Jangchi uchun qurol – muqaddas buyum. Unga egalik uchun loyiq bo'lish kerak. "Sen bu yoyni tutishga u dunyo-yu bu dunyo haqli emassan!" [6, 32] deydi Oyto'ldi xanzu o'g'liga. Chunki garchi o'zi tarbiyalab voyaga yetkazgan, o'z bolasidek mehr qo'ygan bo'lsa-da, u yovning farzandi edi. Hikoyada Erxonning yoyi jangchilar hayotini aks ettiruvchi muhim poetik detal bo'lib xizmat qiladi.

Ijodkorning hikoyada aks ettirilgan voqea-hodisalarga mutanosib tasvirlarni yaratganligi ham diqqatni tortadi. Asardagi o'xshatish, sifatlash, istiora kabi badiiy vositalar qahramonlar hayotining muhim qirralari bo'lgan e'tiqodiy qarashlari, tasavvur va xulosalari bilan bog'lanadi. Masalan, "Quyosh, Tangritog' ortiga qonday qizarib, baayni yarador jangchi misoli yonboshladi" [6, 25]. Bunda quyoshning botishini yarador jangchining yonboshlashiga o'xshatilishi asarning umumiy ruhiga mos tasviriylik deyish mumkin. Bundan tashqari "dovrug'i Tangritog'ni tutgan jangchi" [6, 21], "Ko'k Tangrining huzurida, Tangritog' cho'qqilaridagi mangu osoyishtalik maskanida" [6, 23], "Quyosh Ko'k Tangri yotog'i tomon yonboshlaganida" [6, 23], "qonini Tangritog' suvlari kabi oqizmasam" [6, 28], "Qomati marhum eri, jangchi Erxonning ko'hna yoyi kabi egildi, xanjardek kipriklari to'kildi, jisimidan quvvat ketdi" [6, 29] kabi misollar ham ijodkorning badiiy topilmalaridir.

Xulosa. “Ismsiz qahramon haqida hikoya” hamda “Xun” hikoyalarida ijodkor uzoq tarixning shonli sahifalarini badiiy aks ettirishga harakat qilgan va bu orqali qadim ajdodlarning erkka, yurt sarhadlarini ozod, farovon ko‘rishga, saqlab qolishga bo‘lgan kuchli intilishlari, mardlik, dovyuraklik, qahramonlik, fidoyilik, jasorat, oriyatlilik fazilatlarini ulug‘lashni maqsad qilgan, kitobxonni shiddatli janglar hamda katta yo‘qotishlar bilan qo‘lga kiritilgan hurriyatning qadriga yetishga chorlagan.

ADABIYOTLAR:

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Фан, 1978. – 416 б.
2. Davronova, S. (2022). Контрастическое описание метода в литературе (на примере рассказа Исаджана Султана “Олисдаги урушнинг акс-садоси” (“Эхо войны вдалеке”). *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 9(9).
3. Davronova Shohsanam G‘aybulloevna. (2022). The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”). *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.617>
4. Исажон Султон насри бадиияти. – Т.: Turon zamin ziyo, 2017. – 384 б.
5. Kurbanova F. Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin. Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – 24 b.
6. Султон И. Хун. / Султон И. Асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 20-34.
7. Султон И. Исмсиз қаҳрамон ҳақида ҳикоя. / Султон И. Асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 113-118.

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNIIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1	Раҳимкулов Ғайрат Норқўчқорович, Равзатуллоева Сония Фарҳод қизи	Мавқеъ ва махсусияти лексикаи ифодакунандаи касбу кор дар “Ёддоштҳо”-и Садриддин Айний	6
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
2	Тўхсанов Қаҳрамон Раҳимбоевич, Боймуродов Бехруз Қудратзода	Таъсири адабиёти форсу тоҷик дар эҷодиёти – Фоний	12
3	Safarova Hilola Oxunjonovna, Yuldasheva Parvinabonu Nodirovna	Hamza she’rlarida Luqmoni Hakim timsoli	17
4	Rajabova Marifat Bakoyevna	Alisher Navoiy ijodida darvesh obrazi	21
5	Amonova Zilola Qodirovna Asxatova Diyoraxon Akmal qizi	“Layli va majnun” dostonida Abdurahmon Jomiy madhi	27
6	Davronova SHohsanam G‘aybulloyevna	Tarixiy voqelik tasviri va yozuvchining badiiy mahorati (isajon sulton hikoyalari asosida)	31
7	Джураева Зулхумор Раджабовна	Ядерная зона номинативного поля концепта “женщина /ayol” в русском и узбекском языках	37
8	Турсунова Насиба Ҳамроевна	Ўзбек иримларининг тарихий асослари	42
9	Shukurova Sabohat Odilovna	Jahon adabiyotida suitsid. Egoistik va anomistik xudkushlik	46
10	Namozova Zilola Bozorovna Guliyeva Durdona Shuxrat qizi Sultanova Raisa Xayrullayevna	Rog‘ib va uning “laziz” radifli g‘azali: tabdil va tahlil	50
11	To‘rayeva Laylo Omonovna	Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	55
12	Barotova Mubashira Barotovna	XX asr ingliz, rus va o‘zbek shoirlari ijodida sinkretizatsiyaning aks etishi	61
13	Jamolova Zilola Nizomovna	Adabiyotning ko‘zgusi: Matyoqub Qo‘shjonov ijodi va adabiy obzorlar	66
14	Maxmudova Robiyabonu Furqatovna	Vitaliy Zakrutkin ijodida ona timsoli	71
15	Hamzayeva Zebo Murodjon qizi	“Tess D’erbervillning nasabi” va “Bonu”: janrning ikki ko‘rinishi sifatida	74
16.	Matkurbanova Oygul Mamatsalayevna	Hikoyada mavzu va g‘oya uyg‘unligi	78